



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-may

## RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar- may oylarida bozor xizmatlari hajmi 2526,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 166,3 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 40,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 981,2 ming.so'mni o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019 yil yanvar- may oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2526,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (1019,1 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

## Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi (417,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (403,0 mlrd. so'm),


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 13,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 60,3% ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-may oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklarida ntashqari) % da




### 2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (118,6 %), Denov (113,3), Termiz (107,6%), Sariosiyo (106,9 %) Oltinsoy (106,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019 yil yanvar- may oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muzrabot (102,5 %), Angor (103,1 %) Qiziriq (104,3 %), Boysun (105,0%) , Qumqo'rg'on va Sho'rchi (105,2%) tumanlarida kuzatildi.

**2019 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Surhondaryo viloyati</b>	<b>2526,9</b>	<b>112,3</b>
Termiz sh	1121,9	118,6
tumanlar:		
Oltinsoy	82,5	106,6
Angor	75,0	103,1
Boysun	50,0	105,0
Muzrabod	63,0	102,5
Denov	455,9	113,3
Jarqurgon	97,9	105,7
Qumqurgon	88,1	105,2
Qiziriq	78,4	104,3
Sariosiyo	96,6	106,9
Termiz	78,5	107,6
Uzun	74,1	105,5
Sherobod	82,1	105,5
Shurchi	82,8	105,2

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (1121,9 mlrd.so'm), Denov tumaniga (455,9 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (50,0 mlrd.so'm) ,Muzrabod (63,0 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 44,4 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Denov tumani (18,0 %), Jarqo'rg'on (3,9 %), Sariosiyo (3,8 %) tumanlari tashkil etadi.


**2019 yil yanvar- may oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**  
(jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Boysun (2,0 %), Muzrabot (2,5 %), Uzun (2,9 %), Angor (3,0 %), Termiz, Qiziriq (3,1 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar- may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 981, 2 ming.so'mga ten gbo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar- may oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 7721,6 ming.so'm qayd etildi. 2018 yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish 12,3 % ni tashki letdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qumqo'rg'on tumanida – 369,7 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajm mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2526,9</b>	<b>112,3</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	133,5	110,3
Moliyaviy xizmatlar	403,0	166,3
Transport xizmatlari	417,3	101,6
Shu jumladan:	398,0	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93,0	109,0
Savdo xizmatlari	1019,1	106,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	72,8	103,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	64,0	97,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	26,8	107,9
Ijara xizmatlari	65,4	115,4
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	71,7	100,7
Shaxsiy xizmatlar	75,7	100,2
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	30,5	158,9
Boshqa xizmatlar	54,1	98,5

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (66,3 %), Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (58,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari(15,4%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## 2019 yil yanvar- may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



%

Taqqoslash uchun, 2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -166,3 %,Me'morchilik sohasidagi-158.9%.



2019 yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 1019,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 162.6 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (426,6 mlrd.so'm), Denov (145,6 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (43,0 mlrd.so'm), Sariosiyo (44,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (42,2 mlrd. so'm), Sho'rchi (40,2 mlrd. so'm), Termiz (40,0 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

### 2019 yil yanvar- may oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 22,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Jami xizmatlar tarkibida etakchi o'rinni transport xizmatlarining ulishi (16,5 %) egallaydi.

### 2019 yil yanvar- may oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Surxondaryo viloyati Xizmatlar sohasi

Statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84